

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA
CHORVA MOLLARINING AHOLI KUNDALIK HAYOTIDAGI
O‘RNI**

O‘rmonov Ulug‘bek Adxamjonovich

FarDU O‘zbekiston tarixi kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada chorva mollarining aholi kundalik hayotidagi o‘rni, ularning iqtisodiy, maishiy va madaniy hayotda tutgan o‘ziga xos funksiyalari keng yoritilgan. Tadqiqotda chorvachilik qadimdan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, u orqali nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgani, balki uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechak, transport, mehnat qurollari va hunarmandchilik uchun zarur xomashyo manbai sifatida xizmat qilgani ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, chorva mollari, go‘sht mahsulotlari, sut mahsulotlari, hayvon terisi, jun mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, oziq-ovqat xavfsizligi, maishiy hayot, iqtisodiy an‘ana, xalq xo‘jaligi, qishloq turmush tarzi, etnografiya, oila xo‘jaligi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda chorva hayvonlaridan tuya, ot, eshak va xachir asosiy yuk tashuvchi vosita hisoblangan. Bularning orasida tuyada nisbatan ko‘proq yuk tashish imkoniyati bo‘lgan. Jumladan bitta tuya o‘rtacha 16 pud yukni belgilangan manzilga olib bora olgan. Agar olib borish manzili uzoq bo‘lmasa, tuyaga 17-18 pud ham yuk ortganlar. Tuyalar asossan tekis yoki qumli yo‘llarda yuk tashish uchun foydalanilgan. Yuk tashishda otdan ham keng foydalanilgan. Unda o‘rtacha 8-9 pudgacha yuk ortilgan. Agar otning aravasi mavjud bo‘lsa, unga yanada ko‘proq yuk tashish mumkin bo‘lgan. Xachir ham otga ortilgan hajmdagi mahsulotlarni tashiy olgan bo‘lsa, eshak 4-5 pudli mahsulotlarni manzilga yetkaza olgan xolos. Chorva



hayvonlari orasida tuya va otlardan asosan uzoq masofalarga (karvon bo'lib) yuklar tashilgan. Chorva hayvonlaridan biri – eshakdan faqatgina kundalik hayotdagi yumushlardan iborat bo'lgan yuklarni kichik masofalarga olib borishda foydalanilgan. Shuningdek, karvonlar tashkil etilganda eshak jonzoti yuk tashuvchi ulov sifatida emas, balki ko'p hollarda karvonboshiga transport vositasi o'rnida foydalanilgan bo'lib, karvondagi barcha tuyalar o'zaro arqon bilan bog'lanib, bosh tuya unga tirkab qo'yilgan.

Aholi hayvonlarga arava qo'shishdan keng foydalanish orqali ko'proq yukni tashish imkoniyatiga ega bo'lgan. Jumladan, bir ot 32 pud yuk ortilgan aravani qiyinchiliksiz manzilga yetkaza olgan. Uni odatda yukni bir joydan ikkinchi joyga tashishni o'z zimmasiga olgan arvakash boshqargan. Tuyalar asosan tekis yoki qumli yo'llarda yuk tashish uchun foydalanilgan bo'lsa, tog'li so'qmoqlardan o'tishda ot va eshaklar asosiy transport hisoblangan. Xususan, Farg'ona vodiysidan Toshkent, Samarqand yoki Xo'jandga yuklarni olib borishda otlar va aravalar asosiy transport vazifasini o'tagan. Masalan, manbalarda qayd etilishicha Xo'janddan Qo'qonga yuk ortilgan otlar va aravalar ob-havo holatiga qarab 8 kundan 11 kun oralig'ida yetib borgan.

Yo'l va yil fasllaridagi ob-havo holatiga qarab otlar 39 puddan 50 pudgacha yuk ortilgan aravani torta olgan. Odatda aravaga 35-40 pud yuk ortilgan. Bundan tashqari, ot ustida ham yuk tashish imkoniyati bo'lgan. Agar tekis yo'l bo'lsa, ot ustiga 11-12 pud yuk, tog'li hudud so'qmoqlaridan o'tish lozim bo'lsa 5-6 pud yuk ortilgan.

Yuk tashish uchun mahalliy qorabayr, laqay, qirg'iz kabi ot zotlaridan yuk tashuvchi transport vositasi sifatida keng foydalanganlar. Odatda bu zotlarga mansub otlar chidamli, baquvvat, boshqaruvi oson bo'lgan va ikki g'ildirakli aravaga qo'shishda qiyinchilik tug'dirmagan. Mazkur ot aravalarda manzilning uzoq–yaqinligi, yo'lning tekis–notekisligiga qarab 20 puddan 50 pudgacha yuk tashilgan.



XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qadar Turkistonda tuyalar Afg‘oniston, Eron va Sibir bilan savdo aloqalarida tovarlarni tashishda ham asosiy vosita hisoblangan. Bundan tashqari, ko‘chmanchi chorvadorlar tualardan o‘tov va uy ro‘zg‘or buyumlarini bir hududdan ikkinchi hududga tashishda keng foydalanishgan. Keyinchalik, XX asr boshlarida o‘lkada temir yo‘llar qurilishi natijasida tualarning transport vositasi sifatidagi ahamiyati kamaya boshlagan. Natijada tualardan aholi asosan kundalik ehtiyoji uchun (sut va jun mahsuloti beruvchi chorva hayvoni sifatida) foydalana boshladilar. Ayniqsa tuya junidan sifatli ip yigirib, matolar to‘qishgan hamda ulardan kiyim-kechak tikish keng ommalashgan. Turkiston o‘lkasida tuya go‘шти kam iste‘mol qilingan.

Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda qoramol dehqonchilik dalalaridagi yumushlarni bajaruvchi ishchi kuchi sifatida ko‘proq qadrlangan. Undan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari ikkinchi darajali hisoblangan. Aholi qoramol go‘ishtini kam hollarda (asosan qo‘y va ot go‘ishtini) iste‘mol qilishgan. Ot go‘ishtining ko‘p iste‘mol qilinishi qoramoldan ishchi kuchi sifatida foydalanishga imkon bergan.

Barcha qishloq xo‘jaligi yumushlarida – yer haydashda donli ekinlarni yanchishda ho‘kizlar muhim transport vositasi bo‘lgan. Mahalliy aholining dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aksariyat qismi bir juft ho‘kizga ega bo‘lgan. Ekin maydonlarida qator orasiga ishlov berish uchun ho‘kizlardan foydalanilgan.

A.I.Shaxnazarovning kelirgan ma‘lumotlariga ko‘ra, omochdagi bir juft ho‘kiz kuniga 3-4 desyatina hamda ikki juft ho‘kiz 12 soat davomida 10 desyatina yerni haydashi mumkin bo‘lgan. Bundan tashqari, mahalliy aholi og‘ir yuklarni tashish uchun ham vaqti-vaqti bilan ho‘kiz qo‘shilgan aravalardan foydalangan.



Aholi qoramol go'shtini iste'mol qilgan. Tirik holdagi ho'kizning vazni 15 puddan 25 pudgacha bo'lgan bo'lsa, sigirning og'irligi odatda 10 puddan og'ir bo'magan. Umuman olganda, so'yilgan qoramolning go'sht vazni tirik holatidagi vaznining 60-65 foizni tashkil etgan. O'rganilayotgan davrda bir pud mol go'shtining narxi 1 rubl 80 kopeyektan 2 rublgacha bo'lgan. So'yilgan qoramolning kalla-pocha va teri kabi boshqa mahsulotlari 1 rublga baholangan. Mazkur statistik ma'lumotlarning umumiy qiymatini tahlil qilinsa, bitta so'yilgan buqa o'rtacha 23-24 rubl mablag' hosil qilgan. Bu raqamlar umumiy raqamlar bo'lib, odatda chorvadorlar chorvasini go'sht tarzida bozordagi qassoblarga topshirganda 30-40 foiz arzon narxga topshirgan. Ya'ni bunda ko'proq qassoblar katta foyda ko'rgan.

Jaydari qoramol turiga kiruvchi buqadan 6 puddan 10 pudgacha go'sht va 1,5 pud chorva yog'i olingan bo'lsa, sigirdan 4-6 pud go'sht va 25-30 funt yog' olish mumkin bo'lgan. O'rganilayotgan davrda qoramollarni maxsus yemlar orqali semirtirish ishlari olib borilgan va uning tirik vazni 40 pudgacha yetgan. Semirtirib so'yilgan qoramol vaznining 50-60 foizi go'sht holatida saqlanib qolingan va iste'mol qilinadigan go'shti juda shirin va sifatli hisoblangan. Mazkur so'yilgan qoramollarning terisi 3-4 rublga sotilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, aholi chorva mollaridan go'sht va sut kabi kundalik hayotda zarur bo'lgan oziq-ovqatlarni olgan hamda xo'jalik ehtiyojidan ortgan mahsulotlarni bozorlarga olib borib sotgan. Jumladan, qoramollar asosiy sut beruvchi hayvon bo'lgan bo'lsa, go'sht mahsulotlari asosan qo'ylardan olingan. Bundan tashqari, qo'y jini va terisi kundaliy hayotda katta ahamiyat ega bo'lgan bo'lib, mahalliy hunarmandlar ulardan turli tayyor mahsulotlar tayyorlaganlar hamda boy tajribaga ega bo'lganlar.

Adabiyotlar



1. Перевозочные средства в Туркестнаском крае. / Материалы для статистики Туркестанского края. Выпуск 4. Санкт-Петербург. 1876. С. 124
2. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. Санкт-Петербург. 1908. С. 329
3. Здзеницкий С.С. Животноводство в Сирдарьинской обл. // Туркестанский сборник. Том 561. С. 165а
4. Маев Н. Туркестнаская выставка. Ташкент. 1890. С. 153

